Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	**III. Kimyo fanni o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar**				
O‘quv modul	3.6.1 “Kimyo fanidan sinf va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilish”				
Mavzu	O‘quvchilarni kimyo fanidan olimpiadaga tayyorlash				
Davomiyligi	80 daqiqa				
Mashg‘ulotning maqsadi	• O‘qituvchilarga o‘quvchilarni kimyo fanidan olimpiadaga tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari haqida tushuntirish; • O‘qituvchilarda olimpiadaga tayyorgarlik rejasini ishlab chiqish, olimpiada mavzulari bo‘yicha chuqurlashtirilgan darslar tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirish.				
Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	- Salomlashish; - mavzu va reja bilan tanish-tirish.	5	Suhbat, tushuntirish	1-2-slaydlar	O‘qituvchilar mashg‘ulotni o‘rganishga tayyor bo‘lishadi.
2. Motivatsiya	- Qiziqarli jumboq yoki muammoli savol - “Mavzuning dolzarbligi” haqida qisqa muhokama	5	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama	3-slayd 1-ilova	O‘qituvchilar mavzuga qiziqib, ishtirok etishga rag‘batlanadi.
3. Nazariy qism	O‘qituvchilarga o‘quvchilarni kimyo fanidan olimpiadaga tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari haqida tushuntirish; O‘qituvchilarda olimpiada-ga tayyorgarlik rejasini ishlab chiqish, olimpiada	15	Taqdimot, ko‘rgazma-li tushun-tirish	4-19- slaydlar	O‘qituvchilar o‘quvchilarni kimyo fanidan olimpiadaga tayyorlashning zamonaviy yondashuvlarini nazariy jihatdan o‘rganadi.

	mavzulari bo‘yicha chuqurlashtirilgan darslar tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirish.				
4. Amaliy mashg‘ulot	- Guruhlarda ishlash: Har bir guruhga dars rejasini tuzish vazifasini berish.	35	Guruhlarda ishlash	1- tarqatma; 20-slayd	O‘qituvchilar mavzu yuzasidan amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi.
5. Tahlil va muhokama	- Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar; - Qiyinchiliklarni muho-kama qilish; - Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish	10	Suhbat, muhokama, tahlil	20-slayd; 3-ilova	O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi.
6. Refleksiya	- “Men nimani o‘rgandim?” usuli orqali xulosa qilish	5	Refleksiya usullari	21-slayd	O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	- Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish - Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat		O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlarga yo‘naltiriladi.

Ilovalar

1-ilova. Tinglovchilarga quyidagi ko‘rinishdagi savollar bilan murojat qilinadi (namuna):
Olimpiadada ishlatiladigan test va masala yechish usullarini qanday tahlil qilasiz?
Tayyorlov mashg‘ulotlarida individual yondashuvni qanday amalga oshirish mumkin?

2- ilova 1-tarqatma material

Tinglovchilar 4 ta guruhga bo‘linishadi va har bir guruhga quyidagi amaliy topshiriq matni tarqatiladi.

1-guruh uchun topshiriq. Olimpiada uchun alohida trening dasturi tuzing, unda nazariya, amaliyot va testlarni birlashtiring.

2-guruh uchun topshiriq. Olimpiada testlarini yechish uchun o‘quvchilarga qiyinchilik darajasi o‘sib boruvchi topshiriqlar ketma-ketligini tuzing.

3-guruh uchun topshiriq. Olimpiadada ko‘proq uchraydigan mavzularni tahlil qilib, ularning qiyinlik darajasini aniqlang.

4-guruh uchun topshiriq. Har bir mavzu bo‘yicha o‘quvchilarni mustaqil ishlashga yo‘naltiruvchi qo‘llanma tayyorlang.

3-ilova. Har bir guruh quyidagi savollarga javob berishadi va jadvalni to‘ldirishadi.

a) Topshiriqni bajarish jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?
b) Guruhda ishlashning afzalliklari nimada?
c) Topshiriqni bajarish jarayonida nimalarni o‘rgandingiz?

Kamchiliklar	**Afzalliklari**